

4 kypc 5oburob

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



"UN YORMA OMIXTA YEM ISHLAB CHIQARISH  
KORXONALARIDAGI TEXNOLOGIK USKUNALAR"  
fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000 - Ishlab chiqarish-texnik soha.

Ta'lif sohasi: 320000 - Ishlab chiqarish texnologiyalari.

Ta'lif  
yo'nalishi: 5321000 -Oziq-ovqat texnologiyasi (don mahsulotlari)

Fanning o'quv dasturi, ishchi o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: N.X.Qobilova- "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" kafedrasi v.b.dotsenti.


Taqrizchilar: G'.O.Boqiyev - QarMII "OOMT" kafedrasi mudiri.  
N.F.Xujaqulova - BuxMTI "OOMT" kafedrasi v.b.dotsenti


Fanning o'quv dasturi OOMT kafedrasi yig'ilishida (bayon № 1,  
26 08 2022y.), Sanoat texnologiyasi fakulteti uslubiy komissiyasida  
(bayon № 1, 26 08 2022 y.) va institut uslubiy kengashida  
(bayon № 1, 29 08 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv  
jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.


O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet uslubiy komissiyasi raist

Kafedra mudiri

  
Turdiyev Sh.R.

  
Xakimova M.X.

  
Boqiyev G.O.

## KIRISH

Ushbu dastur don va don maxsulotlarini qayta ishlash korxonalarida qo'llaniladigan asosiy, qo'shimcha xom ashyolar, ulardan olinadigan un yorma va omixta yem mahsulotlarini qayta ishlashni halq xo'jaligidagi ahamiyati, ularning asosiy sifat ko'rsatkichlari, shuningdek fanining tarixi va rivojining tendensiyasi, istiqboli, donni saqlash va qayta ishlash sanoatiga ta'sirini qamraydi.

### Fanning maqsad va vazifalari

**Fanni o'qitishdan maqsad** talabalarda elevator va un yorma sanoati korxonalarida qo'llaniladigan turli donlarning qayta ishlashni halq xo'jaligidagi ahamiyati, tuzilishi, don maxsulotlarini ishlatilish texnologiyasi ko'lami bo'yicha yo'naliш profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** un yorma texnologiyasidagi ilm fan, texnika yutuqlari, xozirgi vaqtida tarmoqning muxim vazifalari don mahsulotlarining tuzilishi, qayta ishlashni turlari, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, meyorlari haqidagi nazariy bilimlarni amalda tadbiq eta oladigan va muammolarini o'rgatishdan iborat.

### Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

"Un, yorma va omixta yem ishlab chiqarish korxonalaridagi texnologik uskunalar" o'quv fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- O'zbekiston don mustaqilligining rivojlanishi va uning ahamiyati bo'yicha mustaqil fikr bildira olishini; botanik va morfologik xususiyatlariga ko'ra don turlari, tiplarini bir biridan farqlay olishini; don, un yorma sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ularga ishlov berishni; donlarning anatomiq tuzilishi va kimyoviy tarkibini tushunib qayta ishlov bera olishini; don massasining xossalarni ta'riflay olishini; don, un yorma va omixta yem mahsulotlarining yangilik ko'rsatkichlariga asosan mahsulot sifatiga baho berib qayta ishlov bera olishini; don massasidagi aralashmalarni tavсifiga ko'ra bir biridan farqlay olishini; don mahsulotlarining hasharotlar bilan zararlanish sabablarini tushuntira olishini; don o'lchamlari, shakli, xajmi haqida, qobiqdorligiga ta'rif berib uskuna tanlay olishini *bilishi kerak*;

---

- talaba yer osti va ochiq kon ishlarida qo'llaniladigan transport uskunalarini aniq kon-texnik sharoitlar uchun texnik va iqtisodiy asoslanganholda to'g'ri tanlash; transport uskunalarini optimal ko'rsatgichlari va ishrejimlarini tanlash maqsadida hisoblash; transport uskunalarini boshqa kon uskunalar bilan birgalikda ishlatish; kon korxonasi transport tizimini to'g'ritanlash va loyihalash; transport uskunalarini konstruktiv parametrlarining geometrik nisbatlarini to'g'ri aniqlash *ko'nikmalariga ega bo'lshii kerak.*

-talaba ishlab chiqarilayotgan don, un yorma va omixta yem mahsulotlarini qayta ishlov berishda qo'llaniladigan uskunalarini texnik-iqtisodiy va konstruktiv tahlil qilish; ularni aniq ishlab chiqarish sharoitlarda samarali ishlatish; uskuna va jinoxlarining optimal ko'rsatgichlari va ish rejimlarini belgilash; uskuna va jinoxlarini turli don sifat ko'rsatgichlariga qarab ishlatish *malakalariga ega bo'lshii kerak.*

#### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

"Un yorma omixta yem ishlab chiqarish korxonalaridagi texnologik uskunalar" fani ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanib, 7 -semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalshtirilgan "Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari"); va ixtisoslik "Yo'nalishga kirish", "Ilmiy tadqiqot asoslari", "Don va don mahsulotlari tovarshunosligi") fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

#### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan korxona uskunalarini xozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan un, yorma va omixta yem maxsulotlarini sifatiga baxo berib davr talabiga javob beradigan, yuqori samaradorlikga ega bo'lgan texnika va fan yutuqlaridan fayadolangan xolda mamlakatimiz aholisini sifatli un, yorma va omixta yem maxsulotlari bilan uzlusiz ta'minlashdan iboratdir.

Shuning uchun un, yorma va omixta yem korxonalarini uskuna lariga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fan ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanib ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo'g'inidir.

## Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

"Un, yorma va omixta yem ishlab chiqarish korxonalaridagi texnologik uskunalar" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda uskuna va jixozlarni maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza va tajriba mashg'ulot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Fan buyicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo'stlik mamlakatlarida yangi chop etilib. "Internet" tizimi orkali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videofilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Tajriba mashg'ulotlarda elektron tajribalar va kompyuterlar yordamida fan buyicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblari, laboratoriya mashg'ulotlarida esa qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdagi elektron modellaridan, virtual laboratoriyalardan foydalaniladi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsnинг o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**“Un yorma omixta yem ishlab chiqarish korxonalaridagi texnologik uskunalar” fānidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi:**

Umumiy o‘quv soati	150 - soat
Shu jumladan:	
Jami auditoriya soatlari	84 soat
Ma’ruza	28 soat
Amaliy	28 soat
Laboratoriya	28 soat
Mustaqil ta’lim	66 soat

Nº	Mavzu, bo‘lim nomi	Ma’ruza masg‘ulot.	Amaliy masg‘ulot.	Tajriba masg‘ulot.	Mustaqil ish
1.	<b>Fanga kirish va asosiy tushunchalar. Korxona uskuna va jihozlari.</b> Mashina-apparatlarning tuzilmasi va alohida elementlarining vazifalari. Mashinalarning turkumlanishi. Mashinalarga quyladigan asosiy talablar. Mashina va apparatlarning texnologiyaviyligi.	2	2	2	2
2.	<b>Don aralashmasidan aerodinamik hususiyati bilan ajralib turuvchi aralashmani ajratib olishda qo‘llaniladigan uskunalar.</b> Havo separatori R3-BAB, R3-BSD .Uskunaning turi, tuzilishi va asosiy ishchi organlari. Uskunada bajariladigan texnologik jarayonning tavsifi. Texnik tavsifi.	2	2	2	4
3.	<b>Don massasidan yirik va mayda, yengil chiqindilarni hamda donni fraksiyalarga ajratishda qo‘llaniladigan uskunalar.</b> Separator A1-BIS-12 Uskunaning turi, tuzilishi va asosiy ishchi organlari. Uskunada bajariladigan texnologik jarayonning tavsifi. Texnik tavsifi.	2	2	2	4
4.	<b>Dondan qiyin ajraladigan aralashmalarini ajratish uskunasi .</b> Tosh ajratuvchi uskuna R3-BKT Uskunaning turi, tuzilishi va asosiy ishchi organlari. Uskunada bajariladigan texnologik jarayonning tavsifi. Texnik tavsifi.	2	2	2	4